

SOLIQDAN QOCHISH VA UNING IJTIMOIIY-IQTISODIY
OQIBATLARINING NAZARIY ASOSLARI

Axmedov Feruz Baxodirovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi (PhD)

Annotasiya: Mazkur maqolada respublikamizda so‘ngi yillarda mamlakatda soliq va moliya sohalarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, investitsiya muhitini yaxshilash hamda biznes doiralarning ishonchini yanada mustahkamlashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar yoritilgan. Shu bilan birga, iqtisodiyotda yashirin aylanma savdo va umumiy ovqatlanish, avtotransportda tashish, uy-joy qurilishi va ta‘mirlash, turarjoy xizmatlarini ko‘rsatish kabi sohalar o‘rganilib, xorij tajribasi, mamlakatimizda uni qo‘llash bo‘yicha ilmiy-amaliy xulosa va takliflar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: soliq tushumlari, tahlika-tahlil, xavflar, samaradorlik, raqamli platforma, usullar va vositalar, ilg‘or axborot- kommunikasiya texnologiyalari, tahlil, optimallashtirish, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi.

Аннотация: В данной статье описаны широкомасштабные реформы, направленные на создание благоприятных условий для ведения предпринимательской деятельности в налоговой и финансовой сферах, улучшение инвестиционного климата и дальнейшее укрепление доверия деловых кругов к нашей республике за последние годы. При этом были изучены такие направления, как подпольная торговля и общепит, перевозки автотранспортом, жилищное строительство и ремонт, оказание бытовых услуг, сформированы научно-практические выводы и предложения по зарубежному опыту и его применению в нашей стране.

Ключевые слова: налоговые поступления, анализ, риски, эффективность, цифровая платформа, методы и инструменты, передовые информационно-коммуникационные технологии, анализ, оптимизация, налоговые льготы, налоговая ставка.

Annotation: This article describes large-scale reforms aimed at creating favorable conditions for doing business in the tax and financial sectors, improving the investment climate and further strengthening the confidence of business circles in our republic in recent years. At the same time, such areas as underground trade and public catering, road transport, housing construction and repair, the provision of personal services were studied, scientific and practical conclusions and proposals were formed on foreign experience and its application in our country.

Key words: tax revenues, analysis, risks, efficiency, digital platform, methods and tools, advanced information and communication technologies, analysis, optimization, tax incentives, tax rate.

Kirish:

Jahon iqtisodiyotida global moliyaviy beqarorlik kuchayishi sharoitida qisqa va uzoq muddatli budjet-soliq siyosatiga oid strategiyani ishlab chiqishda soliq to'lovchilar tomonidan soliqdan qochish holatlarining oldini olish va uni kamaytirishning turli xil mexanizmlarini tadqiq etishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Milliy iqtisodiyotda noqonuniy moliyaviy oqimlarni kamaytirish, soliq to'lovchilar tomonidan soliqdan qochish holatlarini keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish yo'llarini aniqlash, yashirin iqtisodiyotni kamaytirish orqali soliq to'lashdan bo'yin tovlash jarayonlarining oldini olish, soliq to'lashdan qochish xavflarini baholashning uslubiy asoslarini takomillashtirish bu boradagi ilmiy tadqiqot ishlarining ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi.

Adabiyotlar sharxi.

J.Shumpeter (2007) ikki turga bo'linishni taklif qiladi: ishlab chiqarishda mumkin bo'lgan texnik nosozlik bilan bog'liq xavf va tijorat muvaffaqiyatining etishmasligi bilan bog'liq xavf.

A.K.Pokrovskiy (2011) ko'rib chiqish uchun xavfning tarkibiy xususiyatlarini taklif qiladi: xavf, xavfga moyillik, xavfga sezgirlik (zaiflik), boshqa xavf-xatarlar bilan o'zaro ta'sir qilish, xavf haqida mavjud ma'lumotlar, xavf miqdori, xavf bilan bog'liq xarajatlar (xarajatlar), o'ziga xoslik xavflar.

Shvesiyalik iqtisodchi olim K.F.Becker (2004) tomonidan xufiyona iqtisodiyotning o'ziga xosligi, norasmiy iqtisodiyot – bozor iqtisodiyotining nazorat qilib bo'lmaydigan qismi ekanligi ta'kidlanib, qaysiki ular rag'batlantirishning boshqa shakllariga asosan tovarlar ishlab chiqarishlari va xizmatlar ko'rsatishlarini ma'lum qilgan .

Aronov, Kashinlar (2004) o'zining tadqiqotida esa, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning xorij va Rossiya Federatsiyasida undirish mexanizmini o'rgangan holda soliq to'lashdan bosh tortgan soliq to'lovchilar bilan ishlash siyosati, ularning huquq va majburiyatlari, kelgusida har bir soliq to'lovchi o'z xohishi bilan soliq to'lash majburiyati bo'yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishgan hamda ushbu tavsiyalarni soliq va boshqa majburiy to'lovlarni undirish sohasida qo'llab uni isbotlashgan va bir qator amaliy choralarni amalga oshirishgan.

Lekin, Jalonkinani (2012) fikrlaridan butunlay boshqacha taklif bilan Toshmatov "Korxonalarni rivojlantirishda soliqlarning roli to'g'risida"gi kitobida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini rag'batlantirish

hamda ularning debitor va kreditor qarzlari qisqartirish va ularni faolligini oshirish orqali undirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tavsiyalar bergan.

Andreeva (2017) tomonidan soliq to'lovchilar tomonidan soliq intizomiga rioya qilinmaslik sabablari tadqiq qilingan, soliqqa oid bilimlarni oshirishga oid usullari tahlil qilinib, soliq to'lovchilarga davlat hamkori sifatida xizmatni takomillashtirish usullari taklif qilingan.

Kuznesovning (2016) fikriga ko'ra, soliq to'lovchi davlatning hamkori, buni soliq organlari xodimlari tomonidan tushunib etmasdan, huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining soliq savodxonligi va madaniyatini oshirib bo'lmacligi, Kalacheva tomonidan soliqqa oid huquqbuzarlikka qarshi kurashish orqali aholining soliq madaniyatini oshirish yuzasidan tadqiqot olib borib, soliq madaniyatini oshirishga to'siq bo'layotgan omillar va asosiy muammolar tadqiq etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi


Tahlil jarayonida ma'lumotlarni statistik guruhlash, qiyosiy va trendli tahlil usullaridan foydalanildi. Maqolada iqtisodchi olimlarning davlat moliya tizimining dolzarb masalalaridan biri sifatida soliq siyosatini ishlab chiqish va uni amalga oshirishning strategik va taktik yo'nalishlari bilan bog'liq ilmiy tadqiqot usullaridan keng foydalanilib tahlil qilingan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Jamiyatning iqtisodiy bo'g'inining bir maromda borishini ta'minlash davlat hokimiyati tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga jamiyat manfaatlaridan kelib chiqib, ular zimmasiga bir qator majburiyatlar yuklatiladi. Bu majburiyatlar huquqiy, ma'naviy-axloqiy, iqtisodiy majburiyatlar sirasiga noqonuniy pul birliklarini ishlab chiqmaslik, noqonuniy boshqa faoliyat bilan shug'ullanmaslik, erkin tadbirkorlik faoliyatini ochiq shaklda va davlat ro'yxatidan o'tgan holda amalga oshirish, umumjamiyat manfaatlari uchun qonuniy va majburiy tartibda joriy qilingan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni soliqqa tortishning adolatlilik tamoyilidan kelib chiqib o'z vaqtida davlat byudjeti va boshqa fondlarga to'lab borish kabi iqtisodiy-huquqiy majburiyatlardan iborat bo'ladi. Aksariyat davlatlar bu kabi majburiyatlar ularning bosh qomusi-Konstitutsiyasida muhrlab ham qo'yishadi. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Soliq kodeksining Majburiylik prinsipi deb nomlangan 8 moddasida esa, "har bir shaxs ushbu Kodeksda belgilangan soliqlar va unda nazarda tutilgan yig'imlarni to'lashi shart. Hech kimga soliqlar va yig'imlarning barcha alomatlariga ega bo'lgan, biroq ushbu Kodeksda nazarda tutilmagan yoxud uning normalari buzilgan holda belgilangan soliqlar va yig'imlarni to'lash majburiyati yuklatilishi mumkin emas"¹ deb belgilab qo'yilgan bo'lib, unda yuridik va jismoniy shaxslarga Konstitutsiyada yuklatilgan iqtisodiy-moliyaviy majburiyatlarning

¹ Ўзбекистон Республикасининг янги таҳридаги Солиқ кодекси. 7-моддаси.lex.uz.

mantiqiy davomi sifatida bu kabi majburiyatlarni og‘irlashtiruvchi holatlarga olib kelmaslikning ma’lum bir chegarasi ham belgilab qo‘yilgan. Bunday cheklovlar sifatida soliq Kodeksining 10-moddasida “Fuqarolarning o‘z konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishiga to‘sqinlik qiladigan soliqlarni belgilashga yo‘l qo‘yilmaydi” mazmunidagi soliq to‘lovchilarning manfaatlarini himoyalovchi normalar ham kiritilganki, soliq to‘lovchilarga yuklatilgan moliyaviy majburiyatlar adolatlilik prinsiplaridan chiqib ketib, jamiyatga, ayniqsa davlat byudjetiga iqtisodiy zarar kelishining oldini olishga erishish asosiy maqsad qilib olingan.



1-rasm. O‘zbekiston qonunchiligida yuridik va jismoniy shaxslarga yuklatilgan moliyaviy majburiyatlar tasnifi²

Keltirilgan 1-rasmdan ko‘rish mumkinki, O‘zbekiston Respublikasi yuridik va jismoniy shaxslariga, shuningdek, muddatli norezidentlariga soliqlarni to‘lash va u bilan bog‘liq moliyaviy-iqtisodiy yuklatilgan. Ushbu moliyaviy majburiyatlarni ular tomonidan belgilangan tartibda bajarmaslik albatta, moliyaviy-huquqiy

² Amaldagi qonunchilik hujjatlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.


munosabatlarni keltirib chiqaradi. Bajarmaslik holatining yuzaga kelishi esa, uni talqin qilishning bir necha turlari paydo bo'lishiga olib kelinadi. Iqtisodiy adabiyotlarda bu tushunchalarni "soliqdan qochish", "soliqdan bo'yin tovlash", "soliqqa oid huquqbuzarlik", "moliyaviy qonunbuzilishlar", "soliqqa oid xatoliklar" va shu kabi maxsus iqtisodiy kategoriya va tushunchalar bilan izohlanadi.

Bundan tashqari soliqlarni rejalashtirish va soliqlarni maqbullashtirish (optimallashtirish) degan jarayonlar ham borki, ularni ham ayrim hollarda soliqlarni to'lamaslik holati deb tushuntirishlar ham uchraydi (bu haqda keyingi paragrafda to'xtalib o'tiladi), mazmunan olib qaralgan soliqlarni maqbullashtirish soliq to'lovchining iqtisodiy, moliyaviy va huquqiy normalarga asoslanib qanchalik soliqdan kamroq to'lash imkoniyatidan foydalanish hisoblanadi. Bunda davlat byudjeti manfaatlarini inkor qilmagan holda soliq to'lovchining o'z manfaatlarining ustunlik tamoyilidan kelib chiqib, alohida moliyaviy siyosatning ishlab chiqilishidir.

Shu jihatdan olganda soliqdan qochish va uni to'lamaslikning turli xil ko'rinishlari soliqqa oid huquqiy munosabatlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Albatta, bu erda soliqqa oid huquqiy munosabatlar deyilganda soliqlarni to'lamaslik bilan bog'liq holatlar uchun javobgarlik choralaridan ogohlantirish va huquqiy maslahatlar berish bilan bog'liq targ'ibot ishlari ham tushuniladiki, ammo, moliyaviy, ma'muriy va jinoiy javobgarlik choralari soliqqa oid huquqbuzarlikdan kelib chiqib qo'llaniladi.

Agar, iqtisodiy, huquqiy va mantiqiy yondoshiladigan bo'lsa, "soliqdan qochish", "soliqdan bo'yin tovlash", "soliqqa oid huquqbuzarlik", "moliyaviy qonunbuzilishlar", "soliqqa oid xatoliklar"ning zamirida bir necha omillar mavjud bo'ladi. Bularning bosh omili iqtisodiy egoizm psixologik holatdir. Biz buni quyidagi rasm orqali tushuntirishga harakat qilamiz.

Ushbu keltirilgan rasmdan xulosa qilish mumkinki, jamiyatning iqtisodiy-huquqiy munosabatlarida soliq to'lashdan bo'yin tovlashning kotseptual-ijtimoiy asoslarini egoizm tashkil qiladi. Falsafiy va mantiqiy hamda iqtisodiy jihatdan olib qaralganda davlat va soliq to'lovchilarning o'ziga xos manfaatlar mavjud bo'lib, ularni o'zaro kesishini ta'minlashda soliq kategoriyasi muhim sanaladi.



2-rasm. Jamiyatda soliq to‘lashdan bo‘yin tovlashning kotseptual-ijtimoiy asoslari³

Bunda soliq to‘lovchilarga yuklatilgan qonuniy majburiyatlar hamda davlatning turli xil pul fondlarini moliyaviy shakllantirish borasida ikki xil egoistik manfaatlar kesishuvini ta‘minlash davlatning asosiy iqtisodiy funksiyalari sifatida amal qiladi. Egoistik manfaatlar ikki tomonlama xususiyatga ega bo‘lib, soliq to‘lovchilarda bu holat ko‘proq bo‘lganligi sababli ham soliqdan qochish holatlari yuzaga kela boshlaydi.


Davlat faoliyatini qonunlar orqali tartiblasa, soliq to‘lovchilar esa ko‘proq egoistik fikrlash orqali faoliyatini tartiblaydi, bundan ko‘rinadiki, soliqdan bo‘yin tovlashda soliq to‘lovchilarning bir tomonlama manfaatlar borasidagi hatti-harakati soliqdan bo‘yin tovlashning turli xil ko‘rinishlari va shakllarini kelib chiqishiga zamin bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi soliq Kodeksining 22-moddasiga muvofiq, soliq to‘lovchilar zimmasiga yana bir qator moliyaviy majburiyatlar (“hujjatlarni ko‘rib chiqish yoki tushuntirishlar berish zaruriyati to‘g‘risida chaqiruv xatini olganida soliq organiga kelishi, soliq tekshiruvini o‘tkazayotgan soliq organlarining mansabdor shaxslariga soliqlarni hisoblab chiqarish va to‘lash uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan

³ Muallif tomonidan tuzilgan.

hujjatlar, shuningdek elektron manbalarda saqlanadigan tegishli axborot bilan tanishish imkoniyatini ta'minlashi, o'zi soliq bo'yicha hisobga olingan joydagi soliq organlarini O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslaridagi va chet el yuridik shaxslaridagi ishtiroki to'g'risida, agar ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushi 10 foizdan ortiq bo'lsa, xabardor etishi"⁴ va shu kabilar), yuklatilgan bo'lib, bu majburiyatlarni bajarmaslik ularning zimmasiga yuklatilgan soliq majburiyatlarini to'liq bajarmaslikka olib keladi, bu esa ko'plab huquqiy munosabatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Darhaqiqat jamiyat a'zolariga majburiy to'lovlarni to'lash bo'yicha qonuniy majburiyatlarni bajarish avvalo ijtimoiy masala sifatida qarash kerak deb hisoblaymizki, bu uning ijtimoiy xususiyatlarini ko'rib chiqishni taqozo etadi. Shu boisdan quyida keltirilayotgan rasmda biz soliqdan qochishning ijtimoiy xususiyatlarini ochib berishga harakat qilamiz.




Keltirilgan rasmdan ko'rish mumkinki, soliqlarni to'lamaslik holatlari iqtisodiy munosabatlariga nisbatan ijtimoiy hodisadir, chunki, iqtisodiy munosabatlar doirasida juda ko'plab faktlar uchraydiki, soliq to'lovchilarning nazarida soliqlarni to'lamaslik jamiyatdagi davlatning qaysidir funksiyalarining bajarilishida yo'l qo'yilgan kamchiliklarga nisbatan soliq to'lovchining javobi tarzida baholanadi. Soliq

⁴ Qarang: O'zbekiston Respublikasi soliq Kodeksining 22-moddasi.

⁵ Muallif tomonidan tuzilgan.

to‘lamaslikni birinchidan, bu ijtimoiy instinkt sifatida baholash kerak, sababi soliq to‘lovchida egoizm manfaat uni jamiyat manfaatlaridan ustun qo‘yishga intiladi, ikkinchidan soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash bu ijtimoiy qonunlarni mensimaslik bo‘lib, qonun bilan yuklatilgan majburiyatlarni inkor etish hisoblanadi, uchinchidan, soliqdan qochish iqtisodiy manfaat sanaladi, ammo, soliqni qasddan to‘lamaslik shaklida emas, balki, uni to‘lashni qonuniy maqbullashtirish tarzida bo‘lishi mumkin. Shu bilan birgalikda soliqdan qochish bu ijtimoiy hodisa bo‘lishi bilan bir qatorda u moliyaviy, ma‘muriy va jinoiy hodisalarni ham keltirib chiqaradi (4-rasm).




4-rasm. Soliqdan qochishning tomonlari⁶

Ta’kidlash joizki, soliqdan qochish munosabatlarining provard natijasi bu huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarib, ular bilan bog‘liq javobgarlik choralari ham keltirib chiqaradi. Bularning asosini soliq to‘lovchining faoliyati tashkil qiladi. Ayrim olimlar, masalan, S.M.Olennikovning fikricha, soliqdan qochish va soliqlarni optimallashtirish bu soliq to‘lovchining rejalashtirgan hatti-harakatlari hisoblanadi⁷. Ammo, fikrimizcha, soliqdan qochishda soliq to‘lovchi bir tomondan bila turib soliqni to‘lamaslikni amalga oshirsa, ayrim hollarda soliq qonunchiligini bilmaslik oqibatida belgilangan soliqlarni to‘lamay qoladi, ammo soliq to‘lovchining bu hatti harakati ongli hisoblanmaydi, shu boisdan bizning fikrimizcha, bunday munosabatlarni soliqdan qochish emas, balki soliqqa oid huquqbuzarlik deb malakalashtirish kerak.

⁶ Muallif ishlanmasi


⁷ С.М.Оленников. Квалификация уклонения от уплаты налогов по объективным признакам состава преступления. // Юридическая ответственность и ответственные юристы. 2017. №4. С.37-42.



5-rasm. Soliq to'lashdan qochishning turlari⁸

Soliqdan qochish holati va jarayonining mohiyatini anglab etish uchun uni ma'lum bir guruhlarga ajratish lozim deb hisoblaymiz. Biz bu boradagi ilmiy tadqiqot ishlarini tahlil qilgan holda bu boradagi mualliflik yondoshuvimizni yuqorida keltirilgan 5-rasm asosida ifodalashga harakat qilamiz.

⁸ Muallif tomonidan tuzilgan.



6-rasm. O‘zbekiston qonunchiligida soliqdan qochish bilan bog‘liq holatlarga javobgarlikning aks ettirilishi⁹

⁹ O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga ko‘ra, muallif tomonidan tuzilgan.

Soliq to'lovchining hatti harakatlarini tartibga solish esa moliyaviy, ma'muriy va jinoiy javobgarliklar bilan amalga oshirilsa, soliq to'lovchilarga iqtisodiy-huquqiy maslahatlar berish esa, ma'muriy usullardan farqli ravishda targ'ibot choralari taqozo etadi va soliq to'lovchining ruhiyatiga ta'sir etish orqali soliqdan qochish holatlarining oldini olishga ijobiy ta'sir qilishi mumkin.

Xulosa va takliflar.

Yuridik shaxslar bilan jismoniy shaxslar o'rtasida predmeti ishlar bajarishdan iborat bo'lgan, tuzilgan fuqarolik-huquqiy tUSDagi shartnomalarga muvofiq jismoniy shaxslarga amalga oshirilgan to'lovlarga ishlatilgan materiallar narxi ham qo'shilgan bo'lsa, ushbu JShni tadbirkorlik faoliyati davlat ro'yhatidan o'tkazilganligini va tegishli soliqlar hisoblanishini tekshirish. Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Tovar xom-ashyo birjasi o'rtasida har bir birja savdolari yakunlari yuzasidan onlayn ravishda ma'lumot almashinish tizimini yo'lga qo'yish.

Adabiyotlar/Литература/Reference:

F.Axmedov Soliq to'lashdan qochish xavflarini aniqlashda zamonaviy fiskal nazorati takomillashtirish: (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. – Toshkent, 2023.

Шумпетер Й. Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия / Й. Шум-петер. М.: Изд-во Эксмо, 2007. 864 с.

Покровский А.К. Риск-менеджмент на предприятиях промышленности и транспорта: учеб. пособие / А. К. Покровский. М.: Изд-во Кнорус, 2011. 160 с.

Кристина Ф.Б. “The Informal Economy” march 2004, Шведский Международный агентство сотрудничества развития SE-105 25 Стокгольм Швеция.

Аронов А ва Кашин В (2007) Налоги и налогообложение М.: Магистр.

Жалонкина И, (2012) “Модернизация механизмов взыскания налоговой задолженности в Российской федерации”. Автореферат диссертации на и соискание ученой степени кандидата экономических наук с.14.

Андреева В.А. Повышение налоговой грамотности и культуры участников налоговых правоотношений. Экономика Интерактивная наука |4 (14) 2017. стр.136-140.

Кузнецов А.Л. Налоговая политика и налоговые органы: реальное состояние, проблемы, перспективы (региональный аспект) 2016. [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://vasilieva.a.narod.ru/zurnal/>

O'zbekiston Respublikasi davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari. www.soliq.uz.

Нормурзаев У. Х. 2021 йилдаги солиқ маъмурчилиги ҳамда солиқ кодексига киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар юзасидан //Интернаука. – 2021. – Т. 6. – №. 182 част 2. – С. 99.